

30. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish

Yondosh mavzu:
Daromad va xarajat

Jadvallar,
ko'p xonali sonlar



1. Ifodalarni hisoblang va ularning qiymatini toping. Yashil ramkadagi so'zlarda qanday umumiylik bor? Qizil ramkadagi so'zlarda-chi?

$$72 \cdot 5 + 15 \cdot 3$$

Ish haqi

$$16 \cdot 3 + 14 \cdot 2$$

Transport
xarajatlari

$$720 - 6 \cdot 90$$

Nafaqa

$$820 - 9 \cdot 9 - 10$$

Qarzlar

$$300 - 2 \cdot 7 \cdot 10$$

Stipendiya

$$640 : 8 - 7 \cdot 3$$

Xaridlar

2. Qanday ifodalarni hisob-kitoblarsiz taqqoslash mumkin? Ularni og'zaki taqqoslang.

a) $979 \cdot 13$ ☐ $979 \cdot 17$

b) $728 + 425$ ☐ $4 \cdot 301$

d) $823 \cdot 45$ ☐ $823 \cdot 22$

e) $342 : 4$ ☐ $342 \cdot 4$

Qaysi ifodalar juftini hisoblamasdan taqqoslab bo'lmaydi? Bu ifodalarning qiymatlarini daftaringizga yozing.

3. Namunaga qarab ko'paytirishni bajaring.

Namuna:

$$32 \cdot 12 = 32 \cdot (10 + 2) = 32 \cdot 10 + 32 \cdot 2 = 320 + 64 = 384$$

$$24 \cdot 11$$


$$42 \cdot 32$$

$$15 \cdot 12$$

$$86 \cdot 24$$

		3	2	
*		1	2	
		6	4	
+		3	2	0
		3	8	4

30. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish



Ikkita ikki xonali sonni ko'paytirish uchun:

- 1) birinchi sonni ikkinchi sonning birliklariga alohida ko'paytiring;
- 2) birinchi sonni ikkinchi sonning o'nliklar soniga alohida ko'paytiring;
- 3) olingan natijalarni qo'shing.

Sonning birliklar bo'yicha ko'paytmasi birliklar ostiga o'ngdan chapga, sonning o'nliklar ko'paytmasi esa o'nliklar ostiga yoziladi.

O'nliklar soni oxiridagi nol, odatda, yozilmaydi.



3. Misollarni yeching. Amallarning bajarilishini tushuntiring.

$$24 \cdot 25$$

$$52 \cdot 55$$

$$91 \cdot 86$$

$$59 \cdot 68$$



4. Oila har oyda 45 ming so'm qarz to'lashi kerak. Oila yil davomida qancha to'lashi kerak?



5. Oilaning daromadini ko'p xonali sonlar ko'rinishida yozing. Oylik daromadining yig'indisini aniqlang.

Otaning maoshi	7 mln. 700 ming so'm
Onaning maoshi	4 mln. 150 ming so'm
Buvining pensiyasi	840 ming so'm
Kenja o'g'ilning nafaqa puli	450 ming so'm
Otaga qo'shimcha mukofot	720 ming so'm
Jami	

30. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish



6. Oilaning bir oylik xarajatlarini hisoblang.

Oziq-ovqat mahsulotlari	3 900 000 so'm
Kiyim-kechak	2 600 000 so'm
Yo'lkira	920 000 so'm
Dori-darmon	400 000 so'm
Kommunal xizmatlar	400 000 so'm
Jami	



7. 5- va 6-vazifalarning natijasidan kelib chiqib, o'ylab ko'ring. Bu oila televizor sotib olish uchun oyiga 450 000 so'm ajrata oladimi?



8. Oila qolgan pulni uyning bitta xonasini ta'mirlashga sarflamoqchi. Agar xonaning uzunligi 17 m va kengligi undan 2 m kam bo'lsa, uning yuzi qancha bo'ladi?



9. Ikkita yosh bola va uchta katta odam uchun kinoga chipta 160 ming so'm bo'ladi. Kattalarning chiptasi bolalarnikiga qaraganda ikki marta qimmat. Ikkita katta odam va uchta bola uchun chiptaga qancha to'lash kerak?



10. Ikki xonali sonlarni ustun ko'rinishida ko'paytiring.

- a) $45 \cdot 37$ b) $29 \cdot 43$ d) $27 \cdot 62$
e) $55 \cdot 56$ f) $32 \cdot 89$ g) $81 \cdot 31$



11. Planshet 316 dollar turadi. Agar yil davomida bo'lib to'lansa, oyiga 31 dollardan to'lash kerak bo'ladi. To'lov qaysi holatda ko'proq bo'ladi: birdaniga to'langandami yoki muddatli to'lovdami? Birdaniga to'langanda qancha pulni tejab qolish mumkin?